

TELEFON QANDAY ISHLAYDI?



Bugungi kunda biz telefonlarsiz yashay olmaymiz. Ulardan faqat qo'ng'iroq qilish maqsadida foydalanmaymiz. Telefon yordamida biz suratga olamiz, xaridlar uchun pul to'laymiz, filmlar tomosha qilamiz va yangiliklarni o'qiyamiz.



Telefon

Stansiya



Har bir telefon signallarni yuborishi va qabul qilishi mumkin. Rasmdan foydalanib, telefonda muloqot qilayotganingizda nima sodir bo'lishini ayting.

Stansiya

Telefon

101

102

1050

103

104

QUTQARUV
XIZMATI



Qanday muhim telefon raqamlarini bilasiz?



Telefon va planshetlardan foydalanish qoidalarini yodda tuting.



Kompyuter va telefon o'yinlarini 40 daqiqadan ortiq o'ynamang.

Ko'zlaringizni ehtiyot qiling. Telefoningizni yuzingizdan kamida bir tirsak masofada ushlang. Ko'rayotganda boshingizni to'g'ri tuting.



Telefonda 2-3 daqiqadan ko'p gaplashmang. Qo'l telefonini qulog'ingizdan uzoqroq tuting.